

OTA-ONALARGA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MASLAHATLAR

Tarbiyaviy ishni yomon kayfiyatda boshlamang

1

Gaplashishdan oldin bolangizdan nima istayotganingizni aniqlab, uning bu haqda qanday fikrda ekanligini aniqlab oling

2

Bolangizga mustaqillik bering, tarbiyalang, ammo uning har qadamini nazorat qilib, qorovullik qilib yurmang

3

Bolangiz biror muammo oldida turganida unga tayyor yechimni ko'rsatib, shunday qil, demang. O'zi yechim topishiga imkoniyat yarating

4

Bolangiz erishgan har bir kichik yutuqni maqtang, qo'llab-quvvatlang

5

6

Biror xato qilsa, buning sabab va oqibatlarini unga yotig'i bilan ayting. Mana bunda xato qilding, natijada mana shunday bo'ldi, deb, jim turing

7

Bolangizga emas, uning yaxshi yoki yomon qilmishiga baho bering. Bola va uning qilmishi bir narsa emas

8

Bolangizni akasi, opasi, yoki qo'shni, sinfdoshlari bilan solishtirmang. Bolangiz hasadga o'rganadi. Uning o'zini o'zi bilan solishtirib gapiring

9

Bolangizning "Ota-onam menga ishonishadi", deb ishonishiga erishing. Uni quchoqlab turing, ba'zi kichik xatolari haqida kulib gapiring. Kichik xatolar uchun xo'mrayib, hurpayib yurmang

10

Tarbiya bu - maqsadga asta-sekin erishish degani. Uning yosh, jismoniy imkoniyatlariga qarab talabni oshira boring.

